



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI

JOINT-STOCK COMMERCIAL XALQ BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BOSHQARUV QARORI

2025. "9" aprel

№35/6

Toshkent sh.

"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati"ni ma'qullash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish hamda bankda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki qoidalarni O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuniga moslashtirib borish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki qoidalarining amaldagi qonunchilikka mosligini ta'minlash bo'yicha Ekspert guruhining 2025-yil 24-martdagi 18-sonli bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati" (keyingi o'rinlarda – Siyosat) **ilovaga** muvofiq ma'qullansin.

3. **Ichki nazorat va komplayens departamenti** (A. Xaitov) zimmasiga Siyosatni bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish uchun zaruriy hujjatlarni tegishli tartibda Korporativ boshqaruv xizmatiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan bank Boshqaruvining 2024-yil 27-noyabrda 127/3-sonli qarori 1-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) mazkur qarorning nusxasini bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'linmalari va bankning mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlariga ma'lumot va ijro uchun yetkazilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o'rinbosari v.b. F. Ruziyev** zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi v.b.

Sh. Atabayev



**O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq Bankining
korrupsiyaga qarshi kurashish
SIYOSATI**

Mazkur Siyosat O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli va 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmonlari, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli va 2021-yil 22-oktabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5263-sonli Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 8-sentabrda 3319-son bilan ro'yxatga olingan "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risida"gi Namunaviy nizom, 2023-yil 13-martdagi 3425-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomi" va ISO37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-Foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar hujjatlari va tavsiyalari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq Banki (keyingi o'rinlarda – Bank) tizimida bankning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning profilaktikasi sohasidagi siyosati, Bankning boshqaruv organlari a'zolari hamda barcha xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishining asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq Bankining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati" (keyingi o'rinlarda – Siyosat)at talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'i nazar bankning barcha xodimlari uchun amal qiladi.

2. Bankka ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishishlari, uning qonun-qoidalariga rioya qilishi lozim.

3. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan harakatlar;

korrupsiyaviy xavf-xatar – shaxslar tomonidan Bank va uning tizimi nomidan hamda (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy omillar – Bank xodimi uchun asossiz ravishda ko'rib chiqishning keng doirasini yoki umumiy qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz qo'llash imkoniyatini beruvchi, Bank xodimlari, kontragentlari va mijozlariga noaniq, bajarilishi qiyin bo'lgan hamda

(yoki) og'irlashtirilgan talablarni, shuningdek, huquqni tartibga solishdagi bo'shliqlarni o'z ichiga olgan Bank ichki qoidalarini;

korruptsiyaviy harakatlar – Bank manfaatlariga putur yetkazuvchi, o'z manfaatlari va (yoki) uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab o'z xizmat mavqei hamda vakolatlaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda moddiy va (yoki) nomoddiy haq evaziga amalga oshiriladigan harakat yoki harakatsizlik;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonun hujjatlari va Bank ichki qoidalarida korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, Bank xodimlarida korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

bankning boshqaruv organlari – Bankning Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi;

mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan, shuningdek, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

xodim – Bank bilan mehnat shartnomasi tuzgan har qanday jismoniy shaxslar, shu jumladan, Bankning boshqaruv organlari a'zolari;

kontragent – Bank bilan o'zaro shartnoma asosida munosabat o'rnatmoqchi bo'lgan yoki o'rnatib bo'lgan mijoz (yuridik shaxs, oilaviy hamda yakka tartibdagi tadbirkor, jismoniy shaxs);

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan Bankning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

pora – pul mablag'i, qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk, mulkiy foyda va/yoki xizmatlar, mulk yoki xizmat qiymatini qog'oz ko'rinishida olish bilan bog'liq jarayon. Poraning minimal puldagi chegarasi mavjud emas, har qanday berilgan yoki olingan qimmatlik pora berish yoxud pora olish deb tushuniladi;

poraxo'rlik – pora olish, pora berish yoki bu jinoyatlarda vositachilik qilish;

pora olish – shaxsning o'z mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi;

pora berish – shaxsga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatini pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarilishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish;

pora olish yoki berishda vositachilik – vositachilik qilish – pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish;

meritokratiya tamoyili – ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy darajasidan qat'i nazar,

eng qobiliyatli kishilarning rahbarlik lavozimlarini egallashlariga asoslangan boshqarish prinsipi;

moddiy qimmatliklar – moddiy qimmatga ega bo‘lgan har qanday qimmatliklar (pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan, xorijiy valyuta, qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar);

mulkiy naf – pora oluvchiga tekinga va (yoki) past narxlarda amalga oshiriladigan mulkiy tUSDagi turli xil xizmatlar va (yoki) naf;

mulkiy tUSDagi xizmatlar – sanatoriya yoki turistik sayohatga borish yo‘llanmalarini, transportda yurish chiptalarini berish, mansabdor shaxs xarajatlari yoki o‘yin-kulgilari uchun pul to‘lash, pora oluvchi foydasiga ta‘mirlash, qurilish, qayta tiklash va boshqa ishlarni bajarish;

mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalanishi – mansabdor shaxsning boshqa mansabdor shaxslarga ta‘sir ko‘rsatishi va ularning vakolatlaridan foydalangan holda pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi;

pora beruvchining manfaatlari – nafaqat uning shaxsiy manfaatlari, balki uchinchi shaxslar, yaqin qarindoshlar, yaqin shaxslar va boshqa shu kabilarning ham har qanday manfaatlari;

pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat – aybdor tomonidan sodir etilgan yoki sodir etiladigan, pora berilishiga yoki uning mansabdor shaxs tomonidan xizmat qiluvchi har qanday xatti-harakatlar;

aloqador shaxslar – Bank xodimi bilan tijorat Banklarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining 5 (besh) foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

kronizm (favoritizmning do‘stona aloqalarga asoslangan ko‘rinishi) – do‘stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro‘sidan foydalanish;

mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat‘i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma‘muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

mahalliychilik – mahalliy manfaatlarinigina ko‘zlab ish tutish, bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (asilzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) – o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta‘sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Bank manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

urug‘-aymoqchilik – Bank xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

favoritizm – Bank xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Bankda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek, ish va navbatchilik jadvallari ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

shafelik – Bank xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

yaqin qarindoshlar – qarindoshlik yoki qayin-bo'yinchilik munosabatidagi shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar, opa-singillar, er-xotin, farzandlar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, bobolar, buvilar, nevaralar, er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan yoki o'gay aka-ukalari, opa-singillari;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma (keyingi o'rinlarda – maxsus bo'linma) – Ichki nazorat va komplayens xizmati hamda Xodimlarni boshqarish departamenti;

Sovg'alar reyestri – xodim tomonidan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan qabul qilingan va hamkorlarga berilgan sovg'alar to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxati.

4. Mazkur Siyosatda qo'llangan boshqa tushuncha va atamalar qonun hujjatlari hamda xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan ma'noda ishlatiladi.

2-bob. Siyosatning maqsadi va vazifalari

5. Siyosat Bankning o'z faoliyatidagi maqsadlardan kelib chiqqan holda ochiq va qonuniy biznes yuritish, korporativ madaniyatini yuksaltirish, Bank korporativ boshqaruvining eng ilg'or amaliyotiga so'zsiz rioya qilishi va yuksak ishbilarmonlik obro'sini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadlari:

har qanday shakl va ko'rinishdagi korrupsiya harakatlarini rad etilishi to'g'risida Bank xodimlari o'rtasida yagona tushunchani shakllantirish va korrupsiya faoliyatiga jalb qilish xavfini minimallashtirish;

korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash, oldini olish, oshkor qilish yoki yo'q qilish va Bank xodimlari hamda kontragentlarining murosasizligi bilan ajralib turadigan korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish bo'yicha tizimli, keng qamrovli, izchil, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Bank yoki uning nomidan ish ko'ruvchi shaxslar va Bank xodimlari uchun korrupsion harakatlarning oldini olish maqsadida Bank tomonidan tegishli tartiblarni o'rnatish;

Bank xodimlarining yuqori etik standartlarni va biznesni ochish (shaffof) va haqqoniy yuritish tamoyillarini tan olish, shuningdek bank korporativ madaniyatini takomillashtirib borish, korporativ boshqaruvning eng ilg'or urf-odatlar va bankning ishchanlik obro'sini maqbul darajada saqlab turishga intilishini o'zida aks ettiradi.

6. Siyosatning asosiy maqsadlarini amalga oshirishdagi asosiy vazifalar:

Bank faoliyatini O'zbekiston Respublikasining hamda xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablariga, shuningdek, biznesni yuritish etikasi standartlariga muvofiq tashkil etilishini ta'minlash;

Bank xodimlari, mijozlar hamda kontragentlarda korrupsiyaning har qanday ko'rinishi va shakllariga murosasiz ekanligi haqidagi Bank pozitsiyasi to'g'risida yagona va bir xil fikr shakllantirish;

Bank xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga aralashib ketish

tavakkalchiligini minimallashtirish;

Bankka taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlari talablarini, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro qonun hujjatlari va ularning norma hamda talablarini tushuntirish;

Bank xodimlariga mazkur Siyosat, shuningdek, Bankka taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasining korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro qonun hujjatlari va ularning me'yor hamda talablarini bilish va unga rioya qilish haqidagi majburiyatni belgilash.

3-bob. Korrupsion harakatlar

7. Amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga muvofiq quyidagi holatlarda korrupsiya deb qabul qilinadi:

Bank va uning xodimlariga yoki Bank nomidan ish ko'ruvchi uchinchi shaxslarga nisbatan, davlat va munitsipal organlar hamda ularning xodimlari, boshqa yuridik shaxslar va ularning vakillari, boshqaruv organlari va belgilangan yuridik shaxslar vakillariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita:

pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish;

pora olish yoki pora olishda vositachilik qilish;

har qanday shaklda, shu jumladan, pul mablag'lari, qimmatliklar, xizmatlar yoki boshqa ko'rinishda har qanday shaxslardan yoki tashkilotlardan va idoralardan pora olish yoki ularga berish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bankning ichki qoidalarida belgilanmagan moliyaviy yoki boshqa foyda (manfaat) olishni, egallab turgan lavozimini suiiste'mol qilishni va o'z foydasini ko'zlashi;

Bank qonunchiligiga zid ravishda o'zining mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishi.

8. Bank xodimlari uchun mazkur siyosatning 7-bandida ko'rsatilgan har qanday harakatlarni bajarish taqiqlanadi. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar orqali o'zining byurokratik va boshqa rasmiyatchiliklarini soddalashtirish maqsadida turli xil ko'rinishda pora olish yoki berish, mansabdor shaxsga yoki ishtirokchiga o'z lavozim vazifalarini bajarishida biron-bir harakatni yoki harakatsizlikni amalga oshirishi uchun shaxsan yoxud vositachilar orqali bevosita mansabdor shaxs yoki boshqa jismoniy yoxud yuridik shaxsga biror-bir noqonuniy ustunliklarni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim qilish qat'iy taqiqlanadi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy tamoyillar

9. Bank xodimlari o'z ish faoliyati davomida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyatning quyidagi asosiy tamoyillariga amal qilishlari lozim:

qonuniylik tamoyili – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va qonun osti hujjatlariga va boshqa ichki qoidalariga muvofiq Bankning asosiy faoliyatini, korrupsiyaga va poraxo'rlikka qarshi choralarni amalga oshirish;

korrupsiyaning har qanday ko'rinishi va shakliga nisbatan murosasizlik tamoyili – Bank xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, bank xodimlari va mijozlarga korrupsiyaga nisbatan murosasiz qarshi kurashish lozimligini targ'ib etish, korrupsiyaga nisbatan hech qanday qonuniy kechirimlilik mavjud emasligini ongida shakllantirish;

Bank mijozlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi tamoyili – mijozlarning amalga oshiradigan har qanday qonuniy huquqlari va manfaatlarini

hurmat qilish hamda himoya qilish;

ochiqlik va shaffoflik tamoyili – Bank xodimlarining faoliyati oshkoraligi hamda ochiqligi (O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri” to‘g‘risidagi Qonuni talablarini hisobga olgan holda) korrupsiyaga qarshi olib borayotgan siyosatini o‘zining internetdagi rasmiy veb-saytida ochiq joylashtirish va bu harakatlar borasida o‘zining mijozlari, hamkorlari va boshqa shaxslarga axborot berish;

tizimlilik tamoyili – Korrupsiyaga qarshi kurashish salohiyatini baholash, yangi mexanizmlarni joriy etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ilgari surish, ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, muntazam ravishda ularning ijrosini monitoring qilishni takomillashtirish;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorlik tamoyili – korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat va boshqaruv organlari hamda tashkilotlar, shuningdek, mijozlar, kontragentlar va Bankning sheriklari bo‘lgan kompaniyalar hamda birlashmalar bilan hamkorlik;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi tamoyili – korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta‘minlash;

javobgarlikning muqarrarlik tamoyili – Bank xodimlari egallab turgan lavozimi va ish tajribasidan qat’i nazar o‘z mehnat vazifalarini bajarayotgan paytda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan javobgar hisoblanadi;

korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo‘lishi, tizimlili va yaxlitligi – korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi hamda Bankning barcha funksiyalari va yo‘nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish – Bank korrupsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish – Bankning har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun Bank boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlari hamda Ichki nazorat va komplayens xizmatiga murojaat qiladi;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorlik – Bank o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

monitoring, tahlil va baholash – Bank davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek, uning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Bankda

korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirish choralari ko'riladi.

5-bob. Siyosat talablariga amal qiladigan shaxslar doirasi

10. Mazkur Siyosatning talablari 1-bandda nazarda tutilgan hamda quyidagi shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi:

Bank va uning tizimida amaliyot o'tayotgan va malaka oshirayotgan shaxslar (stajerlar), vaqtincha faoliyat yuritayotgan ishchilar (mavjud bo'lganda). Ushbu shaxslar nisbatan mazkur Siyosatda belgilangan korruptsiyaga qarshi choralar qo'llaniladi.

11. Bank va uning tizimiga mehnat shartnomasi yoki xizmat ko'rsatish (ish bajarish) to'g'risidagi fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishga qabul qilinayotgan har qanday jismoniy shaxs, ushbu Siyosat bilan tanishib chiqib, imzo qo'yish va uning qoidalariga rioya qilishga majbur.

6-bob. Bank xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi

12. Bank xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro shartnomalar, shuningdek, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Bankning boshqa ichki qoidalariga mos kelsa;

tadbir Bank yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

tadbir Bank xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasa, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha-tadqiqot tashkilotiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasa;

tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda, Bank va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasa;

tadbir umum e'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos bo'lib, ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasa;

tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lib, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g'ayriodatiy bo'lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasa.

Shuningdek, agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Bankning o'zi bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

7-bob. Korruptsiya profilaktikasi

13. Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rinlarda – tekshiruv obyektlari) Bank xodimlari:

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi;

tekshiruv obyektlarini o'rganish va monitoring qilishni yakka o'zi amalga oshirmasligi;

tekshiruv, o'rganish va/yoki monitoring o'tkazuvchi shaxslar yoki ularning vakillari tekshiruv obyektlariga tashrif buyurganda tekshiruv obyektlari vakillari bilan yolg'iz qolmasligi;

yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rganish o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish hamda ustama haqini kamaytirish bilan

qo'rqitmasligi;

tekshiruv obyektlari xodimlariga tahdid qilmasligi;

hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi lozim;

tekshiruv, o'rganish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;

qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda), Bank tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritishi;

agar tekshiruv obyektlari vakillari Bank xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqida tekshiruv bo'yicha ishchi guruh rahbariga va Ichki nazorat va komplayens xizmatiga zudlik bilan xabar berishi;

tekshiruv obyektlari vakillariga Bank xodimlarining xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

14. Bank, mazkur Siyosat va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki qoidalarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yo'li bilan korrupsiya profilaktikasini amalga oshiradi.

8-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va kriminogen holatlarni aniqlash

15. Bankning Ichki nazorat va komplayens xizmati mas'ul xodimi Bank faoliyati bilan bog'liq qoidalar loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazadi.

16. Ichki nazorat va komplayens xizmati Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari tomonidan biznes-jarayonlari va tartib-taomillarni amalga oshirilishida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bilan bog'liq hodisalarni tahlil qiladi.

17. Bank (tegishli tarkibiy bo'linma) Ichki nazorat va komplayens xizmati tomonidan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish jarayonlarini ishlab chiqadi.

18. Bank o'z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tarkibiy bo'linmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek, Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalda oshiradi.

19. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan vaqtda o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari Bank Boshqaruv Raisi yoki o'rinbosari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar Bankning korrupsiyaga qarshi dastur yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” (PQ-81, 12.01.2022-y.) qaror talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tashkil etilgan baholash reting natijalarini yaxshilab boradi.

9-bob. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish (Due diligence)

20. Bank ta'minotchilari bilan munosabatlarda korrupsiya holatlarini oldini olish maqsadida Ichki nazorat va komplayens xizmati shartnomaviy munosabatlarga kirishishdan oldin kontragentlarni lozim darajada tekshirish tizimi (due diligence)ni joriy qiladi. Mazkur jarayonlarni joriy qilish maqsadida Bank o'z kontragentlari va ularning yakuniy benefitsiarlarigacha bo'lgan ta'sischi va mulkdorlari haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqadi.

21. Bank xodimlariga kontragentlarni va boshqa shaxslarni mazkur Siyosat va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun jalb qilish taqiqlanadi.

10-bob. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

22. Bank xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) Bank manfaatlarini ifodalash chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

23. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'ida:

maxsus bo'linmaga maslahat so'rab murojaat etish;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak

bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etish huquqiga ega;

o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi;

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvdagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini va maxsus bo'linmani xabardor qilishi;

o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan bank nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;

nepotizm, shafelik, favoritizm, kronizm, mahalliychilik va urug'-aymoqchilikning namoyon bo'lishiga qat'i chek qo'yishi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida maxsus bo'linmaning so'roviga ko'ra ma'lumotlar taqdim etishi shart.

24. Bank xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bank bilan munosabatlarga kirishganda:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun maxsus bo'linmadan bepul maslahat olish;

bankning manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega;

shaxsiy manfaatlarini ko'zlab manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to'ldirishi, unga bila turib yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni kiritmasligi shart.

25. Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

26. Bankda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq masalalar Xodimlarni boshqarish departamenti va Ichki nazorat va komplayens xizmati, shuningdek mazkur tarkibiy bo'linmalarning mintaqaviy markazlaridagi xodimlari tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

27. Bank manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda: xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini, shuningdek Xalq bankida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosatini o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o'zgartiradi yoki bekor qiladi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimlarni o'zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etadi;

odob-axloq komissiyasi va maxsus bo'linmalarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi;

aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiya tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralari ko'radi;

manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo'lgan ishonchini tiklash choralari ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni hamda "Xalq bankida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablariga rioya qilmagan bank xodimlariga nisbatan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan choralarni qo'llaydi; O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni hamda "Xalq bankida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablariga rioya qilmagan bank xodimlariga nisbatan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan choralarni qo'llaydi;

bank qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

28. Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari va barcha tarkibiy bo'limlari ichki va tashqi manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelish xavfini doimiy ravishda aniqlash hamda baholash choralari ko'radi.

29. Bank xodimining faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar:

xizmat mavqeini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi bankda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga (bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno);

tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lishga (bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining 10 foizigacha egalik qilish hollari mustasno);

o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bankning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lishga (bundan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno), bunda bank nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a'zosi bo'lgan shaxs mazkur bank xodimi bo'lgan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a'zolidan chiqishi kerak;

o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bank va qaramog'idagi tashkilotlarda o'ziga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo'lmasa, o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bank va qaramog'idagi tashkilotlarning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o'zi ishtirok etishga haqli emas.

Shuningdek, Bank rahbarlari va ularning o'rinbosarlariga, xizmat yuzasidan pul belgilariga va pul (bank) hujjatlariga bevosita aloqasi bo'lgan mansabdor shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlandi.

30. Bank xodimi tomonidan "Xalq bankida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosat" talablari va odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat bankning odob-axloq komissiyasi (keyingi o'rinlarda - odob-axloq komissiyasi) amalga oshiradi. Komissiya tarkibi Bank boshqaruvi raisi buyrug'i bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

31. Odob-axloq komissiyasi:

Bank xodimi tomonidan belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash choralari ko'radi;

maxsus bo'linma tomonidan kiritilgan takliflar bo'yicha manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko'rilayotgan choralarning yetarliligi (to'g'riligi) haqidagi masalalarni ko'rib chiqadi;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan talablarning bank xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra xulosa chiqaradi;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar qilmagan, bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida Bank raisiga taklif kiritadi.

32. Bank xodimlari ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarga duch kelganda yoki kuzatganda, bu to'g'risida o'z rahbariga (Bank boshqaruvi raisiga, uning o'rinbosarlariga, Ichki nazorat va komplayens xizmatiga) darhol xabar berishi lozim.

33. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor etish Bank xodimi tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

34. Bank xodimiga aloqador shaxslar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor etish ularning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishi orqali amalga oshiriladi.

11-bob. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o'tkazish, moddiy rag'batlantirish

35. Bank xodimlarni tanlash va rotatsiya jarayonida kasbga oid sifatlari hamda alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib hamda qobiliyatli shaxslarni ishga qabul qilish va ularning xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo'llaydi.

36. Bank xodimlarning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, kadrlar zaxirasini shakllantiradi, shuningdek, tizimli ravishda xodimlarning malakasini oshiradi, ularning rotatsiyasini yo'lga qo'yadi.

37. Bank Kengashi va boshqaruvi a'zolari, muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro'siga, Bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

38. Bank uning Kengashi va boshqaruvi a'zolari, muhim ahamiyatga ega xodimlari banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

39. Bank xodimlariga mukofot pullarini to'lash, ustama haqlari va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng hamda xolis bo'lishi va ushbu Siyosat talablariga muvofiq kelishi lozim. Bank boshqaruvi, shuningdek, tarkibiy bo'lim rahbarlarini mukofotlashga asos bo'lib xizmat qiladigan faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkichlar Bank xodimlari tanishishi uchun oshkor qilinadi.

12-bob. Sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, vakillik xarajatlari

40. Bank xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida Bank nomidan boshqa shaxslarga beradigan yoki boshqa shaxslardan oladigan sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, vakillik xarajatlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga va ish muomalasi odatlariga muvofiq kelishi lozim.

41. Bank xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar mehmondo'stlik belgilari, jumladan, qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog'ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko'rinishidagi rag'bat vositalarini olish taqiqlanadi.

42. Bunda, bank xodimi tomonidan alohida xizmatlari uchun bankning tegishli qarori asosida olingan sovg'alar, shuningdek musobaqalar va tanlovlarda erishgan yutuqlari, davlat bayramlari, nishonlanadigan sanalar, boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan mukofotlash natijasida olingan sovg'alar hamda xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda tashkilotchi va boshqalar tomonidan taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining **4 (to'rt)** baravaridan oshmaydigan buyumlar mustasno.

43. Bank raisi(o'rinbosari) buyrug'iga (farmoyishiga) asosan:

sovg'aning qiymatini aniqlash va uni saqlash, Siyosatning **1-ilovasi** Sovg'alar reyestrini yuritish bankning Bosh analiyotlar boshqarmasi Ma'muriy xo'jalik departamenti (keyingi o'rinlarda - Ma'muriy xo'jalik departamenti) tomonidan;

sovg'ani bankning balansiga kirim qilish Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti nazorati ostida Ma'muriy xo'jalik departamenti tomonidan;

sovg'alar bilan bog'liq masalalarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish Ichki nazorat va komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

44. Ichki nazorat va komplayens xizmati so'roviga asosan Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti tomonidan balansga olingan hamda Ma'muriy xo'jalik departamenti qabul qilingan va hamkorlarga berilgan savg'alar bo'yicha ma'lumotlarni yuboradi.

45. Bank xodimiga taqdim etilgan sovg'ani ushbu tadbirlardan qaytib kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Ma'muriy xo'jalik departamentiga sovg'aning qiymatini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar (sovg'aning qiymatini tasdiqlovchi savdo cheki yoki savdo kvitansiyasi yoxud boshqa hujjatlar) mavjud bo'lsa, ushbu hujjatlar bilan birga taqdim etadi, bundan tez yaroqsiz holga keluvchi mahsulotlar (tabiiy guldasta, donalik shirinliklar), shuningdek, kanselyariya to'plamlari (taqvim, buklet, yelim ruchka, kundalik va bloknot) sovg'a sifatida rasmiylashtirilmaydi.

46. Bank xodimida sovg'aning qiymatini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lmasa, Ma'muriy-xo'jalik departamenti (zarur hollarda boshqa tarkibiy bo'linmalarni jalb qilishi mumkin) tomonidan sovg'aning qiymati aniqlanadi.

47. Bunda, sovg'aning bozor narxi savdo do'konlari, internet va boshqa manbalar hamda usullar orqali o'rganilib, uning o'rtacha qiymati aniqlanadi va uning natijasi bo'yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi.

48. Sovg'aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to'rt) baravariga teng yoki undan ko'p bo'lmagan miqdorda ekanligi aniqlangan taqdirda, sovg'a bank xodimida qoldiriladi va u tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etiladi. Ma'muriy xo'jalik departamenti tomonidan sovg'aning bank xodimiga topshirilganligi bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

49. Sovg'aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to'rt) baravaridan ortiqliqi aniqlangan taqdirda, sovg'a Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti tomonidan tegishli hisobvaraqlarda yuritilishini yuzasidan berilgan ko'rsatmasiga asosan Ma'muriy-xo'jalik departamenti tomonidan Bank ehtiyojiga foydalanish uchun Bank balansiga kirim qilinadi.

50. Xodimining xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan uning oila a'zolariga taqdim etilgan sovg'a xodimga berilgan sovg'a deb hisoblanadi.

51. Bankda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o'rtasida xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan va xodim shaxsi bilan bog'liq deb e'tirof etilgan sovg'alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

sovg'a oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg'a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

sovg'a ochiq-oydin beriladi, sovg'a berilayotgani yashirilmaydi;

sovg'ani faqat umume'tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k.) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

sovg'alar Bankning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;

sovg'ani berish chog'ida sovg'a berish uchun sabab bo'lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig'imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

52. Bankning bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan summa miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

53. Shubha (gumon)lardan holi bo'lish uchun har qanday bayramlar (cheklanmagan holda tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 42 va 51-bandlarida keltirib o'tilmagan

boshqa tashkilot xodimlari, hamkorlar hamda kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 42-bandida sanab o'tilgan sovg'alar va moddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

54. Bank nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish tartibi quyidagi me'yorlar doirasida amalga oshiriladi:

biznes tushliklar, bayram dasturxonlari, kofe breyk tashkil etish – bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) baravarigacha;

esdalik sovg'alar – bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to'rt) baravarigacha.

Yuqorida ko'rsatilgan guruhlardan tashqari xarajatlar yoki belgilangan me'yorlardan ortiqcha mablag' sarflash, tashabbuskor bo'linmaning bildirishnomasiga asosan boshqaruv raisi yoki o'rinbosarining ruxsati asosida amalga oshiriladi.

Tashabbuskor bo'linma tomonidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (tadbir) uchrashuvlarida hamkorlarga sovg'a bergan kundan boshlab **uch ish** kuni ichida Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy xo'jalik departamentiga sovg'aning qaysi hamkorlarga berganligi yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etadi, bundan tez yaroqsiz holga keluvchi mahsulotlar (tabiiy guldasta, donalik shirinliklar), shuningdek kanslyariya to'plamlari (taqvim, buklet, plastmassali ruchka, kundalik va bloknot) sovg'a sifatida rasmiylashtirilmaydi.

Sovg'a berish, uni qabul qilishning qonuniyligiga shubha tug'ilgan taqdirda, Bank xodimi Ichki nazorat va komplayens xizmatiga xabar berishi lozim.

55. Bank, mazkur Siyosat talablari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga mos kelmaydigan hollarda, davlat xizmatchilari, ularning qarindoshlari yoki ular ko'rsatgan shaxslarning xarajatlarini to'lashi taqiqlanadi.

13-bob. Homiylik va xayriya faoliyati

56. Bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda homiylik va xayriya yordami sifatida mol-mulk olishi hamda o'zi homiylik va xayriya faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

57. Bank homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari hamda mazkur Siyosat talablariga qat'iy rioya qilishi lozim.

58. Bank homiylik va xayriya yordami sifatida mol-mulk olganda homiylik hamda xayriya sifatida olingan mol-mulk tasnifi va qiymati, ushbu mol-mulkni bergan yuridik va jismoniy shaxslar, yuridik shaxslarning ta'sischi, olingan mol-mulkning qanday maqsadlarda sarflanganligi (sarflanishi) haqidagi ma'lumotlarni internet tarmog'idagi o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boradi.

59. Bank qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek, xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni Bankning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo'yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

60. Bank tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo'lmasligi va Bankning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek, xayriya qiluvchi yoki

homiya ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

61. Bank tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

xayriya qiluvchi yoki homiy bilan shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish hamda undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usulini belgilab qo'yish;

bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

Bankning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytidan olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

14-bob. Moliyaviy va texnik nazorat

62. Bank tomonidan doimiy asosda Bankning tarkibiy bo'linmalari faoliyatining ichki va tashqi auditi, buxgalteriya hisobining to'liq va to'g'ri yuritilishi, qonun hujjatlari, Bankning ichki qoidalar, shu jumladan, mazkur Siyosatga rioya etilishi ustidan nazorat tadbirlari o'tkaziladi.

63. Bank, nazorat tadbirlari doirasida tarkibiy bo'linmalar tomonidan asosiy biznes jarayonlarning bajarilishi, shu jumladan, amalga oshirilayotgan to'lovlarning qonuniyligi, iqtisodiy jihatdan asoslantirilganligi, xarajatlarning maqsadga muvofiqligi yuzasidan tekshiruv o'tkazadi.

64. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun Ichki nazorat va komplayens xizmati Bankda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi hamda mutanosibli baholanishini amalga oshiradi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

65. Monitoring va nazorat Bankda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga hamda Bankning boshqa ichki qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

66. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi lozim:

Bank faoliyati funksiyalari va o'ziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi o'zgarishlarning Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni to'g'rilash zarurati, jumladan, uning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini ta'minlashga ta'siri tahlili;

O'zbekiston Respublikasining faoliyatida qo'llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimini yaratish hamda qo'llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi;

ommaviy axborot vositalarining Bank yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Bank kontragentlari yoki hamkorlari to'g'risida xuddi shunday ma'lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoringi;

samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchiligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida Bankning ichki jarayonlari va funksiyalarining monitoring qilinishi;

Bankning korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo'l xaritasi bandlari bajarilishining

to'liqligi va samaradorligini monitoring qilish;

Bank xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;

Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish;

67. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ichki auditini o'tkazish, jumladan, Bankda belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

68. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarda aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarini shakllantirish hamda taqdim etish bo'yicha ichki qoidada mustahkamlab qo'yiladi.

15-bob. Xodimlar bilan munosabatlar

69. Bank mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.

70. Kontragentlar bilan munosabatlarda Bank qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

71. Bankda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek, sotib olinayotgan tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.

72. Kontragentlar bilan o'zaro hamkorlikda Bank:

Bankda kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan, u o'tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, Bank xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

potensial kontragent, jumladan, xarid tartib-taomillari g'olibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo'shish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

73. Vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishishda va h.k) Bank hujjatlarni ko'rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo'shimcha ma'lumotlarni talab qiladi.

74. Bank xodimlariga bevosita va bilvosita, shaxsan yoki vositachi orqali korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish, pora olish, berish yoki berishni taklif yoxud va'da qilish, o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish va boshqa korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish qonun bilan taqiqlanadi.

75. Bank o'z xodimlaridan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari, mazkur Siyosat va Bank tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilishini talab qiladi.

76. Bank xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Bank tomonidan doimiy ravishda o'quv-axborot tadbirlari tashkil etiladi.

77. Bank xodimlari korrupsiyaga qarshi siyosatga muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiyani mazkur siyosatning 2-ilovasiga asosan ma'lum vaqtlarda to'ldiradilar, ularning davomiyligi aniqlangan korrupsiya xavfi asosida belgilanadi. Korrupsiyaga qarshi siyosatga muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiya mustaqil hujjat yoki kengaytirilgan muvofiqlikni baholash jarayonining tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

16-bob. Sodir etilgan yoki sodir etilishi ehtimoli bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish

78. Bank, sodir etilgan yoki sodir etilishi ehtimoli bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish uchun "ishonch telefoni", "Tezkor xabar ilovasi" va boshqa axborot kanallarini tashkil etadi.

79. O'z navbatida, Bank korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni berish uchun tashkil etilgan axborot kanallarini ("ishonch telefoni", maxsus elektron pochta va boshqa) va ulardan foydalanish maqsadlarini Bosh ofisda va quyi tarmoqlarida, shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida keng reklama qilib borishi lozim.

80. Bank ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan Bank faoliyati haqidagi e'lon qilinayotgan materiallar va izoh (kommentariy)larni kuzatib boradi, Bank faoliyati tanqid qilinganda hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari ko'rsatilganda Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilishini ta'minlaydi.

81. Boshqa Bank xodimlari, Bank bilan o'zaro munosabatda bo'lgan kontragentlar va boshqa shaxslar harakatlari (harakatsizligi)ning qonuniyligi yoki etika qoidalariga mosligi yuzasidan shubha tug'ilganda, Bank xodimi zudlik bilan Bankning "ishonch telefoni"ga yoki maxsus elektron pochta xabar berishi lozim.

82. Bankka yoki Bankning nazorati ostidagi yuridik shaxsga aloqador bo'lgan shubhali faoliyat, firibgarlik yoxud suiiste'molliklar to'g'risida xabar qilgan Bank Kengashi, Boshqaruvi a'zosi yoki xodimning shaxsi oshkor qilinmasligi kerak.

17-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul

83. Bankda Ichki nazorat va komplayens xizmati korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun mas'ul tarkibiy bo'linma hisoblanadi.

84. Bank boshqaruvi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirishi uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlaydi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablarini qo'llab-quvvatlaydi.

85. Bankda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari hamda ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, tahlil qilinishi hamda aktuallashtirilishi uchun javobgar hisoblanadi.

86. Bankda Odob-axloq komissiyalari faoliyat yuritadi.

87. Bankdagi Odob-axloq komissiyasi xodimlarning etik xulq-atvor qoidalarini bilan belgilangan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish masalalarini ko'rib chiqadi, shuningdek, Bankda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi siyosatda belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

18-bob. Bankning korrupsiyaga qarshi siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta'minlash

88. Bank korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

89. Bank barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek, joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to'g'risida xabar berish hamda ularni tushuntirishga sarflaydi:

Bank rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Bankda xodimlariga korrupsiyaga qarshi qabul qilingan me'yorlar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

Bank xodimlarini Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitish hamda testdan o'tkazilishini ta'minlash;

yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki qoidalari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish;

Bankdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar tegishli tarkibiy bo'linmada saqlash;

mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Ichki nazorat va komplayens xizmati xodimlari tomonidan Bank xodimlariga maslahatlar berish;

Bank xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish. Bank mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Bankning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek, shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish.

90. Bank kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Bankning yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar Bankning barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do'kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo'yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.

19-bob. Javobgarlik

91. Mazkur Siyosatga mos kelish va Bankning korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va Bankning boshqa ichki qoidalarida belgilab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

92. Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda Bankning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat'iyan man etiladi, ya'ni:

o'z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek, xizmat mavqei va vakolatlarini suiiste'mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so'rab olish yoki so'rash, olishga rozilik berish yoki olish, shu bilan birga, xodim

tomonidan o'z lavozim mavqeidan Bankning qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan, o'zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy foydalanish;

davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta'sir o'tkazish (harakatsizligini ta'minlash) va/yoki shaxs, jumladan, Bank manfaatlarini yo'lida noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora, poraxo'rlik)ni taklif qilish, va'da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;

poraxo'rlik yoki tijoriy poraga olishda vositachilik qilish, jumladan, pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o'rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo'yicha kelishuvga erishishda yordam berish.

93. Bank xodimlarining korrupsiya belgilari mavjud bo'lgan yoki uni sodir etish, jumladan, manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi.

94. Xodimlar o'z rahbari va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullariga ularni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog'liq, shuningdek, ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to'g'risida xabar berishi lozim.

95. Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda Bankda xodimlar tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo'yicha Bankda xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha tartibga muvofiq xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

96. Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki Bankning boshqa ichki qoidalarida mustahkamlab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan Bank xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari doirasida va ularda ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

97. Korrupsiyaviy harakatlar aniqlangan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilma ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qiladi hamda doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.

98. Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, Bank boshqaruvi va bank Kuzatuv kengashiga taqdim etiladi.

20-bob. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar

99. Bank xodimlarining harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan taqdirda, ular haqida Bankning umumfoydalanuvdagi aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

100. Bank o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

101. Korrupsiya to'g'risidagi qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxs "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizomda belgilangan tartibda rag'batlantiriladi.

102. Bank o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini

tushirish, diskriminatsiya, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

103. Bankning aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar Bank mas'ul shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bankdagi korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularni ko'rib chiqishga oid ichki qoidalar va Bankning boshqa ichki qoidalariga muvofiq o'z vaqtida hamda xolisona ko'rib chiqiladi.

104. Bank xodimlari tomonidan ataylab yolg'on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergan shaxs esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

21-bob. Yakuniy qoidalar

105. Bank xodimlari mazkur Siyosatga rioya etilishi uchun mas'uldirlar.

106. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini mazkur Siyosat, Bank xodimlarining odob-axloq qoidalari, Bankda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi siyosatda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

107. Bank Boshqaruv Raisi va uning o'rinbosarlari, shuningdek, Bankning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari o'ziga bo'ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishi lozim, bu esa o'z navbatida, ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

108. Bank boshqaruvi raisi va ularning o'rinbosarlari, shuningdek, Bank tarkibiy bo'linmalari rahbarlari Bank faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo'nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish hamda amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi.

Mazkur Siyosat talablarini buzgan aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy, jinoiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

109. Mazkur Siyosatni tasdiqlash, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda uni bekor qilish Bank Kuzatuv kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

110. Mazkur Siyosat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Ichki nazorat va komplayens
departamenti direktori o'rinbosari**



A. Boyqobilov

